## 6.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1.Ishni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to‘liq qoplaydi va 0.5% miqdorda jarima to‘laydi.

6.2. To‘lovni kechiktirilganligi uchun “Buyurtmachi” “Bajaruvchi”ga xar bir kechiktirilgan kun uchun, to‘lovni kechiktirilgan qiymatining 0.2% miqdorida, lekin ushbu summaning 50 %dan oshmaydigan miqdorda tovon (penya) to‘laydi.

6.3. Neustoykani to‘lash taraflarni shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.4. Ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilganlik uchun taraflar shartnoma summasining 0.2% miqdorida jarimaviy neustoyka to‘laydi.

6.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## 7. NIZOLARNI HAL QILISH.

7.1.Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.

7.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda nizo talabnoma bildirish tartibiga rioya qilinganidan keyin iqtisodiy sudda ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

## 8.FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH.

8.1. Tomonlarning xoxish-istagiga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan xollarda (noqulay ob-xavo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar (fors-major) tufayli bajarilmagan yoki qisman bajarilmagan (yetkazib berilmagan yoki to‘lab berilmagan)ligi, shartnoma shartlarini ijro etish buzilgan deb xisoblanmaydi va ushbu xolatda tomonlarni shartnomani bajarish muddati kelishilgan muddatga kechiktiriladi.

## 9. BOSHQA SHARTLAR.

9.1. Shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan bekor qilinishi mumkin.Shartnomani bir taraflama bekor qilish yozma taklif berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.Taklif olingandan so‘ng 3 kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9.2. Taraflar o‘zlarining yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi xaqida bir-birlarini 3 kunlik muddatda xabardor qilishlari shart.

9.3. Shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma ravishda bajarilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan xoldagina xaqiqiydir.

9.4. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib ikkalasi xam bir hil yuridik kuchga ega xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

9.5. Shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

**Tomonlarning yuridik manzili va to‘lov rekvizitlari.**

**“IJROCHI”**

SEO va JS xizmati Navoiy viloyat boshqarmasi
Navoiy shaxar Navoiy kuchasi -8 uy.
Shaxsiy x\r - 400121860124017074110054002
Toshkent shaxar markaziy bank xisob
kitob kassa markazi MFO-00014
INN:200006096 OKONX-91531
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
G‘aznachiligi H/r - 23402000300100001010
INN - 201122919 OKONX-91531 OKED:-71200
Boshqarma boshlig‘i. R.U.Xasanov
" " ____________ 2021 yil
Huquqshunos

**“BUYURTMAChI”**

РИ ФТЁ И М НФ.
Навоий ш Ибн Сино-27
H/r 10002186012401707310205 4001
BMM ________ STIR 200006302
Марказий банк
Тел: 220 42 13
МФО: 00014
ОКОНХ: 91515

Raxbar: ____________ Маликов Ю.Р.
" " ____________ 2021 yil

Р. Иброхимов